INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SO‘Z–GAP VA TO‘LIQSIZ GAPLARNING LINGVISTIK, STRUKTUR–SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI: DUNYO, RUS VA O‘ZBEK OLIMLARI TADQIQOTI ASOSIDA

Ibragimova Muqaddas Abdullayevna
Samarqand davlat chet tillar instituti, o‘zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrasi o‘qituvchisi

https://zenodo.org/records/15803413

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy lingvistikada muhim o‘rin tutuvchi so‘z–gap va to‘liqsiz gaplar masalasi ko‘rib chiqilgan. Bunday tipdagi gap shakllarining grammatik, semantik va stilistik xususiyatlari Amerika, Yevropa, rus va o‘zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, so‘z–gap va to‘liqsiz gaplarning matn tuzilishidagi o‘rni, kommunikativ va ekspressiv imkoniyatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: so‘z–gap, to‘liqsiz gap, lingvistik analiz, struktur–semantik xususiyat, stilistika, ekspressivlik, sintaksis, kommunikativ funksiya, rus tilshunosligi, o‘zbek tilshunosligi.

KIRISH

Tilshunoslikda gap asosiy sintaktik birlik sifatida qaraladi. Ammo har bir gap strukturaviy to‘liqlikka ega bo‘lavermaydi. Amaliy nutqda, ayniqsa, og‘zaki nutqda qisqalik va ixchamlik talab qilinadigan hollarda **so‘z–gaplar** va **to‘liqsiz gaplar** keng qo‘llaniladi. Ushbu gap turlari har doim ham klassik sintaktik modellarga mos bo‘lavermaydi, biroq ular semantik va kommunikativ jihatdan mustaqil ahamiyatga ega bo‘lib, lingvistik jihatdan alohida o‘rganishni talab etadi.

So‘z–gaplar bu – odatda, bitta so‘z bilan ifodalangan, mustaqil gap vazifasini bajara oladigan birliklardir. To‘liqsiz gaplar esa strukturaviy jihatdan ba’zi sintaktik bo‘laklari tushib qolgan bo‘lsa–da, kontekst orqali anglashiladigan va to‘liq fikrni ifodalovchi gap shakllaridir. Mazkur maqolada bu gap turlarining tahlili rus, ingliz va o‘zbek tilshunoslari tadqiqotlari asosida olib boriladi.

Jahon olimlari M.A.K. Halliday, S. Thompson, D. Crystal, N. Chomsky, F. de Sossyur kabi olimlar minor clauses (kichik gaplar), fragmentlar va ellipsislar ustida tadqiqotlar olib borgan. Ular sintaktik bo‘lmagan, ammo kommunikativ yadroga ega birliklarni til tizimining ajralmas qismi deb biladi.

Tilshunoslar tomonidan so‘z–gaplar, to’liqsiz gaplar ingliz tilida **minor syntactic unit** (kichik sintaktik birlik) , One–word sentence, Word–sentence, Ellipsis, Incomplete Structure, Performance, nemis tilida Einwortsatz,

Satzäquivalent, fransuz tilida Phrase mineure, Phrase non verbale sifatida qaraladi.

M. A. Halliday (1976) Gapning *Mood + Residue* (kayfiyat + qolgan qism) tuzilmasini ko‘rsatmaydigan boshqa bir holat — bu kichik nutq funksiyasini amalga oshirayotgan holatdir. Kichik nutq funksiyalariga undovlar, murojaatlar, salomlashishlar va ogohlantirishlar kiradi.

Kichik gaplar (Minor clauses) Gapning *Mood + Residue* (kayfiyat + qolgan qism) tuzilmasini ko‘rsatmaydigan boshqa bir holat — bu kichik nutq funksiyasini amalga oshirayotgan holatdir. Kichik nutq funksiyalariga undovlar, murojaatlar, salomlashishlar va ogohlantirishlar kiradi.

Bu nutq funksiyalari ba’zida to‘liq gap (major clause) orqali ham ifodalanadi; masalan, undovlar ba’zi xildagi deklarativ gaplar orqali , salomlashishlar esa interrogativ yoki buyruq gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Biroq bu nutq funksiyalarida yana boshqa shakllar ham ishlatiladi, ular taklif (proposal) yoki bayon (proposition) sifatida qurilmagan bo‘ladi. Ularning ko‘pi o‘z ichki tuzilmasini aniqlashtirishga hojat qoldirmaydi.

Undovlar almashuvning (exchange) eng chekka holatidir; ular hech kimga qaratilmagan holda aytilgan og‘zaki imo-ishoralardir. Ba’zilari hatto til emas, balki *prototil* (ya’ni tildan oldingi vosita) hisoblanadi, masalan: *Voy!*, *Tavba!*, *Aha!*, *Voy dod!* kabi. Boshqalari esa til materialidan tashkil topgan bo‘lib, ba’zida hatto aniq so‘zlar va grammatik tuzilma elementlarini ham o‘z ichiga oladi: masalan, *Zo‘r!*, *Senga nima kerak!*, *Voy xudoyim!*, *Yo‘q bo‘l!* kabi. Bularni istalgan holatda nominal guruh sifatida (6.2-bo‘lim, 311-bet) yoki tranzitivlik nuqtayi nazaridan gap sifatida (5-bob) tahlil qilish mumkin.

Murojaatlar — bu gapiruvchining boshqa bir kishining (yoki murojaat qilinishi mumkin bo‘lgan har qanday mavjudot yoki narsa: xudo, ruh, hayvon yoki jonsiz narsa) e’tiborini tortishidir. Bular *gap-almashuv* nuqtayi nazaridan qaralganda *vokativ* (murojaat shakli) funktsiyasini bajaradi. Masalan: *Karimjon!*, *Ey bola!*, *Hurmatli prezident!*, *Ey Rabbim osmondagi!* Shuningdek, bu yerda murojaatga javobni ham kiritish mumkin; odatda bu *yes* so‘zining ko‘tarilgan ohangda aytilgan shakli (4.5-bo‘lim, 143-bet).

Salomlashishlar — bular salomlar (masalan: *Salom!*, *Xayrli tong!*, *Xush kelibsiz!*, *Assalomu alaykum!*), va xayrlashishlar (*Xayr!*, *Ko‘rishguncha!*); ularning javob shakllari ham odatda shu guruhdagi iboralardan iborat. Bu toifaga shuningdek, tilak bildirishlar ham kiradi: *Sog‘ bo‘ling!*, *Barakalla!*, *Tabriklayman!* kabi. Murojaatlar va salomlashishlarning ba'zilari to‘liq gap yoki nom gruhlari tarzida tuzilgan bo‘lishi mumkin.

Ogohlantirishlar ba’zida undovlarga ohang jihatdan o‘xshash bo‘ladi; ammo ular boshqa shaxsga qaratilgan bo‘ladi va odatda gap grammatikasidan kelib chiqqan bo‘ladi — ular katta va kichik gaplar orasidagi oraliq holatni egallaydi. Ogohlantirishlarga quyidagilar kiradi:(a) **Ogohlantirishlar**: *Ehtiyot*

bo‘l!, *Tezroq!*, *Diqqat!*, *Yaqinlashma!*(b) **Yordam chaqirishlar**: *Yordam bering!*, *Yong‘in!*, *Rahm qiling!*, *Suv bering!* kabi. Bu gaplarning ko‘pi imperativ (buyruq) shaklida ochiq ifodalangan.

So‘z–gaplarni “minor clauses” deb atab, ularning funksional grammatikadagi o‘rnini alohida ko‘rsatib o‘tgan. Ingliz tilida bu turdagi gaplar ko‘pincha emotsional reaksiyalar, rozilik yoki buyruqlarni ifodalashda ishlatiladi: *Thanks., Yes., No., Sure!*

V.V. Babaytseva, V.A. Beloshapkova, F.I. Buslaev, N.S. Valgina, V.V. Vinogradov, A.Kh. Vostokov, G.A. Zolotova, L.Yu. Maksimov, V.Yu. Melikyan, L.A. Novikov, A.M. Peshkovskiy, A.A. Potebnya, O.B. Sirotinina, Ye.S. Skoblikova, N.M. Shanskiy, N.Yu. Shvedova, L.V. Shcherba, M.V. Lyapon, V.S. Kovalev kabi rus tilshunoslarining **so‘z–gap (слово–предложение / слово–группа)** haqida olib borgan tadqiqotlari va ularning asosiy fikrlari bayon etiladi. Bu olimlar so‘z–gaplarni **mustaqil gap shakli** sifatida qabul qilib, ularning **funktsional**, **struktur** va **stilistik** xususiyatlarini izohlagan.

V.V. Vinogradov, A.M. Peshkovskiy, L.P. Chesnokova kabi olimlar to‘liqsiz gaplarning turlarini tizimlashtirgan, ularning uslubiy imkoniyatlarini ochib bergan. Ular to‘liqsiz gaplarni nutqning kontekstual strukturasi asosida talqin qilgan..А.Шахматов ва А.М.Пешковский диалогик нутққа тавсиф беришар экан, унинг таркибида доимо тўлиқсиз гапларнинг мавжуд бўлишини эътироф этишади.

O‘zbek tilshunosligida bu masala A. G‘ulomov, E. Shodmonov, R. Bobokalonov, A.S. Usmonov, B. O‘rinboyev, A. Hazratqulov,S.Saidov C, B.O’rinboyev,O’Lafasov, G‘. Rahmatullayev, T. Hojiyev kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ular so‘z–gap va to‘liqsiz gaplarning matndagi roli, ekspressiv imkoniyatlari, uslubiy jihatlarini milliy til materiallari asosida ochib bergan.Qurbonova va L. Raupovaning tadqiqotida esa so‘z-gaplar formal-funksional yondashuvda tahlilga tortilgan.

B. O‘rinboev so‘z-gaplarni vokativ gaplardan farqlaydi, vokativ gaplarga nisbatan so‘z-gap terminini qo‘llash mumkin emasligini, vokativ gap funksiyasida kelgan so‘zlar doim ham so‘z-gap bo‘lib kelavermasligini ta’kidlaydi. Tilshunos so‘z-gaplar va vokativ gaplarning ma’no o‘ttenkalari, strukturasi, qo‘llanish o‘rnini yoritadi, shuningdek, so‘z-gaplarni mazmuniga qarab bir necha tipga ajratadi:

Inkor o‘ttenkasini bildiruvchi so‘z-gaplar.

Tasdiq o‘ttenkasini bildiruvchi so‘z-gaplar.

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

So‘roq so‘z-gaplar.

Emotsional so‘z-gaplar.

O‘zbek tilshunosligida so‘z-gaplar muammosini maxsus o‘rgangan E. Shodmonov so‘z-gaplarning o‘ziga xos tabiati, alohida sintaktik kategoriya ekanligi, morfologik asosi; so‘z-gaplarda predikativlik, modallik va intonatsiyaning o‘rni; undalma, kirish so‘zlarga munosabati va ulardan farqi; so‘z-gaplarning shakllanishida kontekst, situatsiya va mimikaning o‘ziga xos roli; dialog va monologlar, qo‘shma gap, ko‘chirma gapli qurilmalar tarkibida qo‘llanilishi, buning o‘ziga xos tomonlari; nutqda yakka, takror, yondosh gaplar bilan kelishi; so‘z-gaplarning kuzatilgan maqsad va intonatsiyasiga ko‘ra turlari kabi qator masalalarni batafsil yoritib berdi.

R. Bobokalonov so‘z-gaplar deb nomlanuvchi birliklarni alohida so‘z turkumlari sifatida ajratdi. So‘z-gaplarni o‘z ichida quyidagi turlarga ajratdi:

modal so‘zlar;

undov so‘zlar;

tasdiq-inkor so‘zlar;

taklif-xitob so‘zlar.

So‘z–gaplar ko‘pincha faqat bitta so‘zdan tashkil topgan bo‘lsa–da, ular aniq bir kommunikativ vazifani bajaradi. Masalan:

O‘zbek tilida: *Bo‘ldi.*, *Mayli.*, *Xo‘p.*

Rus tilida: *Хорошо.*, *Ладно.*, *Есть!*

Ingliz tilida: *Okay.*, *Alright.*, *Done.*

Ular odatda fe’l, modal so‘z yoki bog‘lovchidan iborat bo‘ladi. Strukturaviy jihatdan bu gaplar an’anaviy sintaktik modeldan farq qiladi, biroq kontekstda to‘liq gapdek funksiyani bajaradi.

So‘z–gaplar va to‘liqsiz gaplarning matnda **stilistik hamda pragmatik** ahamiyati nihoyatda katta. Ular nutqning ekspressivligini oshiradi, emotsional rang–baranglikni beradi va og‘zaki muloqotni jonlantiradi.

So‘z–gaplar nutqda tabiiylikni, tezkorlikni ifodalaydi, dialogda javob yoki reaksiya sifatida xizmat qiladi, emotiv vazifani bajaradi. Shu bois ham so‘z–gaplar, to‘liqsiz gaplarning **stilistik va pragmatik** ahamiyati real nutqda nihoyatda aniq namoyon bo‘ladi.

To‘liqsiz gaplar ingliz tilida “elliptical clauses” deb yuritiladi. “To‘liqsiz gaplar” (elliptical clauses) – bu oldingi gapdan ma’no jihatidan to‘liq tushunarli bo‘lib, ayrim bo‘laklari tushib qolgan gaplardir. Ular asosan javoblarda yoki kontekstdan anglash mumkin bo‘lgan holatlarda ishlatiladi:

Misollar:

– Do you want some more wine? – White [Ø: wine].

– Have you seen Fred? – No [Ø: I haven’t seen him].

To‘liqsiz gaplar quyidagi turlar ajratiladi:

Anaphoric ellipsis – oldingi gapda aytilgan elementga tayanadi:

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

Qayerga borayapsiz? – Do‘konga. (to‘liq shakli: *Men do‘konga borayapman.*)

Cataphoric ellipsis – keyingi gapda tushuntiriladi:

Agar... (so‘nggi gapda shart ochiladi)

Struktur jihatdan ular to‘liq gapga mos keladigan sintaktik bo‘laklarga ega emas, ammo semantik jihatdan mukammallikka ega bo‘ladi.

Ularning asosiy belgisi – kontekstdagi boshqa gaplarga tayanib, sintaktik bo‘laklarning tushirib qoldirilgan bo‘lishidir. Bu haqda rus tilshunosi A.M. Peshkovskiy shunday deydi: “To‘liqsiz gap – bu aytilmagan, ammo kontekstdan kelib chiqib to‘ldiriladigan gapdir”. Shu bois, to‘liqsiz gaplar analizda nafaqat sintaktik, balki semantik yondashuvni ham talab qiladi.

To‘liqsiz gaplar esa rasmiy yoki norasmiy uslublarda ko‘p qo‘llaniladi, badiiy matnlarda ifodaning ixchamligini ta’minlaydi. O‘quvchining yoki kuzatuvchining fikrini faollashtiradi. Ular nutqning ekspressivligini oshiradi, emotsional rang-baranglikni yuzaga chiqaradi va og‘zaki muloqotni jonlantiradi.

XULOSA

So‘z-gap va to‘liqsiz gaplar zamonaviy tilshunoslikda nafaqat struktur-semantik, sintaktik birlik, balki pragmatik va stilistik vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ular muloqot jarayonida ixchamlik, aniqlik, ifoda kuchi kabi jihatlarni ta’minlaydi. Har bir til bu gap turlarini o‘z tizimi asosida shakllantirgan bo‘lsa-da, ularda umumiy kommunikativ funksiyasi jihatidan yaqinlik kuzatiladi. Amerika, Yevropa, rus va o‘zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bunday gap shakllarining turli tillardagi o‘xshash va farqli jihatlarini yoritishgan.

Shu boisdan, so‘z-gap va to‘liqsiz gaplarning sintaktik, semantik hamda pragmatik aspektda tadqiq etilishi ularning nutqdagi funksional yuki va uslubiy imkoniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu birliklar tadqiqi asosida shakllangan nazariya til strukturasi va kommunikativ faoliyat orasidagi uzviy bog‘liqlikni anglashda tilshunoslik nazariyasiga sezilarli hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hallidey M.A.K., Mattiessen K.M.I.M. An introduction to functional grammar. – 3-nashr. – London: Arnold, 2004. – p. 153.

2. *Шодмонов* Э. *Ҳозирги* замон *ўзбек тилида* сўз-*гаплар*: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1970. – Б. 50-61

3. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент, 1974. – Б. 110-111.

4. Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 63.